

**MUQIMIYNING “BO‘LDIMU?” RADIFLI G‘AZALI**

**Sobitova Robiyaxon Salohiddin qizi**

*Qo‘qon davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi*

[robiyaxonsobitova04@gmail.com](mailto:robiyaxonsobitova04@gmail.com)

+998917392805

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 29.08.2024

Revised: 30.08.2024

Accepted: 31.08.2024

Ushbu maqolada Qo‘qon adabiy muhitining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan muqimiyning “Bo‘ldimu?” radifli g‘azali tahlilga tortilgan. G‘azalning mavzusi, tematik-kompozitsion, g‘oyaviy-badiiy jihatlari va unda qo‘llanilgan lafziy san’atlar yuzasidan ayrim mulohazalar keltirib o‘tilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:**

*Muqimiyl, g‘azal,  
bayt, “Bo‘ldimu?”, ilm,  
musulmon, inson,  
hamsuhbat*

**Bo‘ldimu?**

Ilm o‘qug‘oni bilan har kim musulmon bo‘ldimu?

Mouman aylab farishta g‘ayri shayton bo‘ldimu?

Shikvalar aylab tuz ichgan yerlaringizni mudom,  
Yo magar posi namak tutmog‘liq oson bo‘ldimu?

She’ringizg‘a xalq tolib bo‘lsalar so‘ngra o‘qing,  
Yo kelib ahbob kar bo‘lmoqqa mehmon bo‘ldimu?

Kimki muhmaldir o‘zi ham o‘zgani muhmal bilur,  
Qilsangiz g‘ayra atoe, derki, ehson bo‘ldimu?

Buzda rish, eshakda jon, to‘ti gapirg‘oni bilan  
Ey afandim, sizga ul, albatta, inson bo‘ldimu?

Suhbat ahlig‘a qilolmay ul kecha izhori fazl,  
Fazlingizning paxtasi ham yoki arzon bo‘ldimu?

Bo‘l magay hosil, Muqimiy, ma’niye har lafzdin,  
Dona sochqon birla har qishloqi dehqon bo‘ldimu?

\*\*\*

**G‘azal vazni:**

Ramali musaddasi maqsur

**Taqte’si:**

-V--/ -V--/ -V--/ -V-

**Afoilu tafoli:**

Foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilun

**Lug‘ati:**

**Mouman-** manmanlik

**Shikva-** norozilik, arz qilish

**Posi namak-** tuz

**Atoe-** sovg‘a, in’om qilish

**Muhmal-** noaniq, mujmal

**Buz-** echki

**Rish-** soqol

**Izhori fazl-** marhamat

**BADIY SAN’ATLAR:**

Tazod, kalomi jome’, tanosub, istiora, epifora.

**MATNIY KOMPOZITSIYA:**

**Band-** 7

**Misra-** 14

**Sarlavha-** “Bo‘ldimu?” radifli g‘azali

**Janr qaydi-** g‘azal

**Yozilgan sanasi-** XIX asr

**Joyi-** Qo‘qon

**TEMATIK KOMPOZITSIYA:**

**1. Tezis:**

Ilmni da’vo qilgan bilan hamma ham musulmon bo‘lib qolavermaydi, ilmga amal qilish ham zarur,

Farishta manmanlik qilgani uchun ham shaytonga aylanib qoldi-ku axir.

**2. Antitezis:**

Tuz ichgan joyingizni tuzini “sho‘r” deb, ya’ni o‘zingiz manfaat olgan yerdan ayb topib, shikoyat qilish sizga shunchalik oson darajaga yetib qoldimi? Deya ritorik so‘roq gap qo‘llanyapti.

**3. Vositayi xulosa:**

Suhbat ahliga marhamat qilmay qo‘ydingiz, yoki so‘zlaringizning qiymati arzon baholandimi?

**4. Sintez:**

Muqimiy, har so‘zda ham ma’no bo‘lavermaydi, axir har uchragan qishloqi, yer ilmidan bexabar kishi ham ekin sochgani bilan dehqon bo‘lib qolavermaydi -ku?!

**NASRIY BAYON**

Ilmni da’vo qilgan bilan hamma ham musulmon bo‘lib qolavermaydi, ilmga amal qilish ham zarur,

Farishta manmanlik qilgani uchun ham shaytonga aylanib qoldi -ku axir.

Tuz ichgan joyingizni tuzini “sho‘r” deb, ya’ni o‘zingiz manfaat olgan yerdan ayb topib, shikoyat qilish sizga shunchalik oson darajaga yetib qoldimi? Deya ritorik so‘roq gap qo‘llanyapti.

She’rlaringizga, suhbatingizga xalq talabgor bo‘lsa, keyin o‘qing,

Yoki do‘st- yorlaringizni, birodarlarlingizni bekorchi so‘zlar bilan bezdirmoqchimsiz?!

Kim muhmal, tushunarsiz, fikrlashi chalkash kishi bo‘lsa, boshqalarni ham shunday o‘ylaydi,

Siz hadya sifatida nimadir in’om etsangiz, bu ehsonmi? - deb so‘raydi.

Echkida soqol, eshakda jon, to‘ti gapirgani bilan, ular ison bo‘lib qolmaydi -ku?!

Suhbat ahliga marhamat qilmay qo‘ydingiz, yoki so‘zlaringizning qiymati arzon baholandimi?

Muqimiy, har so‘zda ham ma’no bo‘lavermaydi, axir har uchragan qishloqi, yer ilmidan bexabar kishi ham ekin sochgani bilan dehqon bo‘lib qolavermaydi -ku?!

G‘azalning matlasida ilm deyilganda ham diniy ham dunyoviy ilmlar nazarda tutilib, kishi ilm o‘qigani bilan, biroq uni uqib, hayotga tatbiq qilmasa, amalsiz ilmdan foyda yo‘qligi, shar’iy ilmlarni biladigan hamma ham chin musulmon bo‘lib qolavemasligi aytilgan.

Manmanlik va kibr sababli farishtaning shaytonga aylanish voqeasi ham keltirib o‘tilgan. Alloh taolo insonni tuproqdan yaratib, farishtalarga o‘zining yaratig‘i qarshisida sajda qilishni buyuradi. Barcha farishtalat sajda qilishadi, ammo Azozil fatishta tug‘yonga ketib, men olovdan yaratilgan bo‘lsam, nega tuproqqa sajda qilishim kerak deydi. Haqqa isyon qilib, la’natga uchraydi va Iblisi la’inga aylanadi.

Keying baytda tuz ichgan joyingizni tuzini “sho‘r” deb, ya’ni o‘zingiz manfaat olgan yerdan ayb topib, shikoyat qilish sizga shunchalik oson darajaga yetib qoldimi? Deya ritorik so‘roq gap qo‘llanyapti.

Sizni istagan insonlar bilan hamsuhbat bo‘ling, noo‘rin joyda behuda so‘zlab, malomatga qolmang, har gapirguvchi tilga eshitguvchi quloq bo‘lishi kerak, deydi shoir. Hazrat Navoiyning shunday baytlari bor:

Meni men istagan o‘z suhbatiga ajrumand etmas,

Meni istar kishilar suhbatin ko‘nglim pisand etmas.

Shuningdek, ijodingiz mahsulini unga matlub bo‘lganlar qarshisida eshittiring, har narsani she’r deb, asar deb yozaversangiz, atrofingizdagilarni qulog‘ini tom bitirasiz, demoqchi.

Keyingi baytda insonlarning turfa xil tabiatga egaligi, ba’zi kishilar o‘zлari qanday bo‘lsa, boshqalarni ham shunday ko‘rishi haqida fikr yuritilyapti. Kim muhmal, tushunarsiz, fikrlashi chalkash kishi bo‘lsa, boshqalarni ham shunday o‘ylaydi, Siz hadya sifatida nimadir in’om etsangiz, bu ehsonmi? - deb so‘raydi.

Echkida soqol, eshakda jon, to‘ti gapirgani bilan, ular ison bo‘lib qolmaydi -ku?! Alloh taolo har bir bandasiga odamlik fitratini bergani bilan u inson nomiga munosib bo‘lib qolmaydi. Chin insoniy fazilatlar to‘rt muchasi sog‘ bo‘lgan hamma kimsalarda ham uchrayvermaydi. Hamma ham odamiylik, insoniylik xilqatidan to‘la-to‘kis bahramand bo‘lolmaydi.

Suhbat ahliga marhamat qilmay qo‘ydingiz, atrofdan o‘zingizni yiroqlashtira boshladingiz, suhbatdoshlarga iltifot ko‘rsatmay qo‘ydingiz yoki so‘zlarining qiymati arzon baholandimi?

Muqimiy, har so‘zda ham ma’no bo‘lavermaydi, axir har uchragan qishloqi, yer ilmidan bexabar kishi ham ekin sochgani bilan dehqon bo‘lib qolavermaydi -ku?! Har aytilgan so‘zda ham ma’no bo‘lavemasligi, ma’nisiz gapdan hech foyda chiqmasligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, dona sochgan bilan har qishloqi ham dehqon bo‘lib qolavermaydi. Har ishda ham yetarlicha mahorat bo‘lmasa, ko‘zlangan maqsadga yetmasligi, har kim ham o‘z qo‘lidan kelgan ish bilan mashg‘ul bo‘lishi haqida fikr yuritilgan.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Abdulkayr M, Navoiy asarlarningi izohli lug‘ati.-ToshkentSpektrum Media Group,2024.
2. Komilov N,Tasavvuf, -Toshkent:Movarounnahr,2009.
3. Qomusiy lug‘at. Mualliflar jamoasi.-Toshkent:Sharq nashriyoti,2016.
4. Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari antologiyasi, Toshkent:Tamaddun,2022.
5. Saidakbarova M.Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari.-Toshkent:Klassik.2024.